

SINFDAN TASHQARI MUSIQA TO'GARAKLARINI TASHKIL QILISH

G'ofurova Shahrizoda Farhod qizi

Navoiy Davlat Pedagogika instituti "Musika ta'limi" kafedrası 4-kurs talabası

Xodjabayeva Z.P

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'quvchilarning maktabdan tashqari vaqtlarini unumli o'tkazish uchun musiqa to'garaklarini olib borish faoliyati, uning ahamiyati haqida tavsiyalar berilgan. Shuningdek, musiqa to'garaklarini tashkil etish, to'g'ri olib borish va tashkiliy tuzilish shakli haqida kerakli tavsiyalar yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Maktab, musiqa, emotsional, xor, ashula, vokal.*

Musiqadan sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim va tarbiyasi bevosita darsdagi o'qitish tizimiga tayanadi, umumiy maqsad va vazifalar negizida o'quvchilarni musiqaga qiziqish va ehtiyojlarini izchillik bilan rivojlantirib boradi.

Ma'lumki, umumiy ta'lim maktablari o'quvchilarni professional musiqa faoliyatiga tayyorlashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ymaydi. Biroq musiqani tushunish, uni idrok qilish, undan emotsional ta'sirlanish har bir o'quvchiga, u kelajakda musiqachi san'atkor bo'ladimi yo'qmi bundan qat'iy nazar xos bo'lmog'i kerak. Shu narsa yaxshi ma'lumki, musiqadan yaxshi tayyorgarligi bo'lgan kishilarda badiiy did ancha yuqori bo'ladi, idroki boy bo'ladi.

Maktabda musiqa bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni yaxshi yo'lga qo'yilishi musiqiy ta'lim va tarbiya mazmunini har jihatdan to'ldirish, mukammal va to'laqonli bo'lishda katta ahamiyat kasb etadi. Sinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi o'quvchilarni iloji boricha ko'proq ommaviy-madaniy va to'garak ishlariga jalb etish orqali ularni dunyoqarashlarini, qiziqish va ehtiyojlarini har tomonlama rivojlantirish, badiiy didini o'stirish, shu orqali malakaviy madaniyatini tarbiyalashdan iboratdir.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi ommaviy shaklida o'quvchilar yalpi tarzda ishtirok etilaveradi. Bu shaklda turli bayramlarga, musiqa bo'yicha ko'rik-tanlovlarga, ijodiy uchrashuvlarga teatr va konsertlarga jamoa bo'lib tushishi, «Alifbe» bayramlari, shoir, bastakor, qo'shiqchi-hofizlar bilan uchrashuvlarga tayyorgarlik, qatnashish kabilar kiradi. Ammo bularning har biriga bolalarni yoshi, qiziqishlariga qarab oldindan tayyorlab berish kerak bo'ladi.

To'garaklar esa maktab o'qituvchisining imkoniyatlariga (cholg'uchilik, ijrochilik) qarab tuzilishi mumkin.

Maktablarda tuziladigan to'garaklar:

1. Xor.
2. Vokal-cholg'u.

3. Ashula va raqs ansambli.
4. Vokal ansambli.
5. Cholg'uchilar ansambllari (rubobchilar, dutorchilar, doirachilar va h.k).
6. Raqs.
7. Duxovoy cholg'uchilar.

Bu ishlarni tashkil etish musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi va darajasiga bog'liq bo'ladi. Har bir ommaviy tadbir va to'garak ishlarini yuksak badiiy did bilan tashkil etish, tizimli asosda olib borish juda ma'suliyat bilan ishlansa va bu ishga alohida mehrni talab etadi.

Musiqa o'qituvchisining ommaviy ishlar rejasi maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar mudiri, maktab yetakchisi bilan tanish bo'lgan holda turli bayram, uchrashuvlar, tadbirlarni hisobga olgan holda tuziladi. Ommaviy musiqa mashg'ulotlarining har biri aniq maqsad, aniq ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshirilmog'i lozim. Bunda har tadbirni o'z xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga o'quvchilarni jalb qilish muhim payt hisoblanadi. Mashg'ulot turli xususiyati, repertuar mazmuni, maktabning imkoniyatlari, taklif etiladigan mehmonlar hisobga olinadi. To'garaklar ish rejalar ko'proq musiqa o'qituvchisi yoki to'garak rahbarining imkoniyatlariga qarab tuziladi. To'garak ishlariga jalb qilishda birinchi galda o'quvchilarni qiziqishi, cholg'uchilik va ashulachilikka mos imkoniyatlari (ovozi, diapozoni) e'tiborga olinadi va ular guruhlariga bo'linib, haftasiga 2-3 bor mashg'ulotlar olib boradi. To'garak faoliyatini ko'zga ko'rsatadigan, uni samaradorligini belgilovchi narsa bu maktab sahnasidir. O'quvchilar tadbirlarda qo'shiqlar, raqslar, rollar ijro etib, maktab jamoasi oldida e'tibor qozonadi, shahar, tuman, viloyat, respublika ko'rik-tanlovlarida qatnashadilar. Bularning barchasi ularning o'z mehnatidan, zavqlanish, vatanga, tabiatga, hayotga, musiqa san'atiga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi o'quvchilarni iloji boricha ko'proq ommaviy va to'garak ishlariga jalb etib, ularni dunyoqarashini har tomonlama rivojlantirish, badiiy didini o'stirish, tabiatga, Ona-Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirishdir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda maktablarda musiqa darslaridan tashqari, ommaviy va to'garak ishlari olib boriladi. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini ikki shakli mavjud.

- 1) Musiqa tarbiyasining ommaviy shakli.
- 2) Musiqa tarbiyasining to'garak shakli.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ommaviy shaklida bolalarni musiqiy uquvini tekshiruvdan o'tkazmay, yalpi tarzda jalb etishni taqazo etadi. Bularga, qo'shiq bayramlari, «Musiqa haftaligi», «O'zbekiston Vatanimmanim», «Ilhom chashmali» ko'rik-tanlovlaridan, ijodiy uchrashuvlar, teatr va konsertalarga sayohat, «Alifbe» bayramlariga, shoir va bastakorlar bilan uchrashuvlar kiradi. Ammo, bularning har biriga bolalarni yoshi, qiziqishiga qarab, oldindan tayyorlab borilishi kerak. Bu tadbirlarni har birini yuksak badiiy did bilan tashkil etib, amalga

oshirish, chinakam badiiy-musiqiy bayram ruhini kasb etish lozim. Musiqa o'qituvchining ommaviy ishlar rejasi, maktab ma'muriyati tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Ommaviy, musiqiy ishlar rejasi, musiqa o'qituvchisi va maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar mudiri, maktab yetakchisi bilan hamkorlikda, o'quvchilarning yoshiga, qiziqishiga qarab, bayramlar, uchrashuvlar, tadbirlarni hisobga olgan holda tuziladi. Bunda o'quvchilarning musiqiy uquvi, qobiliyati hisobga olinadi. Ommaviy musiqa mashg'ulotlarining har biri aniq ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshirilmog'i lozim. Bunda har bir mashg'ulot turiga qarab, uning asosiy maqsadi, xususiyati, repertuar mazmuni, maktab imkoniyatlari, taklif etilgan mehmonlar hisobga olinib, o'quvchilar jalb etiladi. To'garak ishlarini esa, ish rejasini musiqa o'qituvchisining o'zi, o'z hohishi va imkoniyatlariga qarab, mustaqil tarzda tuzadi. O'qituvchi to'garak ishlariga o'quvchilarni musiqiy qobiliyati, xohish-istagi, qiziqishi, ovozigacha qarab tanlab oladi va turli to'garaklar tuzadi. Haftasiga 2-3 bor to'garakni guruhlarga bo'lib ishlaydi. To'garak ishlarining asosi musiqa darsidir. To'garak ishlariga qobiliyatli, qiziquvchan, musiqa darslarida aktiv qatnashadigan o'quvchilar tanlab olinadi. Darsda har bir bolaning layoqati, qiziqishi hisobga olinib, u yoki bu musiqa to'garagiga jalb etiladi. To'garak faoliyati faollashtiradigan narsa – bu maktab sahnasidir. O'quvchilar tadbirlarda, qo'shiqlar, raqslar ijro etib, maktab jamoasi oldida e'tibor qozonib, tuman, shahar, respublika ko'rik-tanlovlarida qatnashdilar. Bu ularni o'z mehnatidan zavqlanishi his-tuyg'ularni Ona-Vatanga muhabbat, musiqa san'atiga hurmat, do'stlari orasida mehr-muhabbat tuyg'usini oshirib boradi.

Maktabdan tashqari musiqaviy tarbiya shakliga bolalar musiqa maktablari, bolalar ijodiyot markazlari, o'quvchilar saroylari, bolalar teatrlari, muzeylar kiradi.

Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga ko'ra, ularning ijodiy imkoniyatlarini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan musiqa (fortepiano, torli cholg'ular, estrada-cholg'u ijrochiligi, xalq cholg'ulari, damli va zarbli cholg'ular, an'anaviy cholg'u ijrochiligi, an'anaviy xonandalik, akademik xonandalik, estrada xonandaligi) va san'at (xoreografiya, teatr san'ati, tasviriy va amaliy san'at) yo'nalishlarida faoliyatini amalga oshiradi.

ADABIYOTLAR:

1. G.Sharipova "Musiqa va uni o'qitish metodikasi" T. 2006yil.
2. Raximov va boshqalar «O'zbekistan Vatanim manim» 2 kitob. T.,1998 yil.
3. Nurmatov va boshqalar 1-3 sinf «Musiqa» darsliklari. T., 2002 yil
4. T. Ismailov "Экономика и социум" №1(80) 2021
5. "Musical currents and the formation of Russian classical music" T.Kh. Ismailov "Вестник магистратуры" 2021. №5 (116)
6. G.Sharipova Music and methods of its teaching. 2006

7. Xodjabayeva Z.P. Ijodiy fikrlashda folklor to`garaklarining yoshlar
tarbiyasidagi o`rni *Respublika ilmiy-amaliy konferensiya*
Jizzax 2022-yil 29-noyabr

8. www.ziyonet.uz

9. www.lex.uz

